

TA’LIMDA JARAYONIDA O’QITUVCHILARNING REFLEKSIV BILIMLARI VA KOMPETENSIYALARINING AHAMIYATI

Usmonova Kumush Baxodir qizi,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti tayanch doktoranti
e-mail: Kumushusmonova55@yandex.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif o’z xatti-harakatlarini boshqarishda o’qituvchining kompetensiyasining asosi sifatida refleksiya va ta’limga doir refleksiya hodisalarini, shuningdek, talaba shaxsiyati bilan o’zaro munosabatga kirishishda hamda o’quv jarayonining texnologik tomonini ochib berishda qo’llaniladigan ko’nikmalarni ko’rib chiqadi. Fransuz iqtisodchisi va siyosatchisi Jek Delor XXI asrda uzlucksiz ta’lim va ta’lim konsepsiysi bilan birgalikda 4 ta yetakchi tamoyillarni ta’lim ustunlari sifatida yoqlab chiqqan. To’rtta asosiy kompetensiya guruhini shakllantirishni talab etadigan to’rtta ustun bular: bilishni o’rganish, harakat qilishni o’rganish (bajarishni o’rganish), birgalikda yashashni o’rganish, mavjud bo’lishni o’rganish.

Kalit so’zlar: refleksiya, ta’lim ustunlari, relfeksiv kompetensiyalar, refleksiv bilimlar, empatiya.

THE IMPORTANCE OF REFLECTIVE KNOWLEDGE AND COMPETENCES OF TEACHERS IN THE EDUCATION PROCESS

Usmanova Kumush Bakhodirovna,

Doctoral student at Samarkand State University named after Sharof Rashidov
e-mail: Kumushusmonova55@yandex.com

Annotation. In this article, the author describes the phenomena of

reflection and reflection on education as the basis of the teacher's competence in managing his own behavior, as well as the skills used in interacting with the personality of the student and revealing the technological side of the educational process. French economist and politician Jacques Delors advocated 4 guiding principles as pillars of education along with the concept of continuous education and training in the 21st century. The four pillars that require the formation of four main competence groups are: learning to know, learning to act (learning to perform), learning to live, learning to exist.

Keywords: reflection, educational pillars, reflexive competencies, reflexive knowledge, empathy.

Bugungi ta'lif sharoitida aqliy faoliyat hamda mutaxassislarning ijodkorlik tashabbusi kasbiy faoliyat samaradorligi uchun muhimdir. O'z kasbining ustalari keng ko'lamli ko'nikma va malakalarga, ya'nikim, maqsad va vazifalarni belgilash, tartibga solish va boshqarish kabi qobiliyatlarga ega bo'lishlari kerak. Shu o'rinda refleksiv bilimlar va kompetensiyalar ham shular qatoriga kiritilishi lozim. Ushbu ishning asosiy maqsadi refleksiya kontekstida refleksiv kompetensiyalarning ahamiyatini meta-nazariya sifatida ochib berishdan iboratdir.

Biz ushbu muammoga V. Vasilyev nazari bilan qaraymiz, ya'ni o'qituvchilik kasbi eng refleksiv, va o'qituvchining refleksiyasi professional refleksianing eng tipik turidir (Vassilev, 2018, 26-bet).

Hozirgi zamonda o'qituvchining professionalligi uning kompetensiyasi bilan uzviy bog'lanyapti (kompetensiya – lotinchadan bog'liq, qodir). Kompetensiya pedagogga o'z faoliyatini mukammal olib borishiga shubhasiz ko'maklashadi. Kompetensiya nafaqat oldin egallangan usul va metodlarni ishga

solish uchun kerak, balki yangi va ijodiy yondashilgan uslublarni ishlab chiqish hamda shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun ham nihoyatda muhimdir.

Refleksivlik kompetensiyasi o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish hamda professionallikni rivojlantirish uchun muhim shart hisoblanadi. Bu refleksiv psixologiya doirasida nisbatan yangi tushunchadir. Refleksivlik kompetensiyasi shaxsiyatning kasbga doir xususiyati sifatida qaralib, refleksiv jarayonlarning samarali olib borilishiga sharoit yaratadi. U o'z-o'zini shaxsiy rivojlantirish va ijodkorlik xislatlarini qo'llab-quvvatlaydi. V. A. Mataeva refleksivlik kompetensiyasini meta-kompetensiya deb nomlaydi hamda unga insoniyatning turli jabhalardagi faoliyati doirasida shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun muhim omil sifatida qaraydi (Mataeva, 2006, 57-bet). Shuni ta'kidlash kerakki, meta-kompetensiya deb atalishiga sabab, refleksivlik kompetensiyasi qolgan barcha kompetensiyalarning samarali rivojlanishi uchun zamin yaratib berishidadir.

Aynan shuning uchun ham uning rivojlanishi ta'limga hamda shaxsiy ta'limga barcha bosqichlaridagi ta'limga jarayonida nihoyatda muhim rol o'yнaydi.

Reflektiv kompetensiya pedagogik hamda psixologik treyningning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu treyningda o'z-o'zini muhokama qilish, ya'ni “self-reflection” odatini shakllantirish zarurdir.

Refleksivlik kompetensiyasi esa o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi tizimida o'zining o'rni va roliga ega. O'qituvchining professional kompeteniyasi tizimi yaratadigan refleksiv malaka, ko'nikma, va metodlar jamlanmasi mustahkam kompleks hisoblanib, ularning asosiy vazifasi doimiy ravishda o'z-o'zini baholash faoliyatini boshqarishdan iboratdir.

O'z-o'zini nazorat qilishning samaradorligi o'qituvchining refleksivlik

qobiliyatiga bog'liq bo'lib, uning xatti-harakatlari va o'zini tutishini oqilona va obyektiv tahlil qilish, o'zining faoliyati, maqsadlarining to'g'riliqi, foydalanadigan usullari, texnikasi hamda tajribasi haqida fikr yuritishini qamrab oladi.

Refleksiv kompetensianing eng samarali bosqichiga refleksiv o'qitish metodikasi hamda akmeologik shart-sharoitlar yaratish, ya'ni o'qituvchining yangilangan kasbiy faoliyati doirasida muammoning mavjudligi hamda reflektiv muhitning yaratilganligi orqali erishiladi. Qo'shimcha ravishda, treyning samaradorligini oshirish uchun fikrlash va faoliyat jarayonidagi reflektiv tajribalarga ishtirokchilarni jalb qilish talab etiladi.

Buning natijasi esa muammoli vaziyatlarni hal qilish mahorati, guruhlararo muloqot qobiliyati, hamda shaxsiy tajribaning oshishi kabilarda ko'rindi. Reflektiv kompetensianing akmeologik ahamiyati shundaki, uning mexanizmlarini anglash va tushunish qobiliyati shaxslarga o'z qadriyat va normalarini, shuningdek ularning o'z shaxsiy rivojlanish strategiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Fransuz iqtisodchisi va siyosatchisi Jek Delor YUNESKOning XXI asr Ta'limiga bag'ishlangan "O'rganish: Ichimizdag'i Xazina" (Learning: The Treasure Within) deb nomlangan hisobotida ta'lim sohasidagi 4 ta asosiy ustunlarni 4 ta muhim kompetensiyalar bilan bog'laydi.

Bilishni o'rganish. Ushbu tamoyil ta'limning barcha sohalarida talab qilinadigan ijtimoiy, kognitiv hamda maxsus konsepsiyalarga ega bo'lish bilan bog'liq. Ularni birlashtirish umrbod ta'limni takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

Bajarishni o'rganish. Ikkinci ustun zamonaviy ta'limda o'quvchining tajribalarining universalligini ta'minlaydigan ko'nikmalarni, ya'ni mukammal

tuzilgan reja bo’lмаган түрли хил holatlarda о’з стратегияларидан foydalanish imkoniyatini takomillashtirishdan iboratdir.

Boshqa insonlar bilan birga yashashni o’рганиш bu ularning tarixi, an’analari va madaniy qadriyatlarini tushunish, hurmat qilish, shuningdek, ularning o’ziga xos xususiyatlarini va boshqacha bo’lish huquqini tan olishdir. Bu xilma-xillik va bag’rikenglik deyiladi.

Mavjud bo’lishni o’рганиш. Ta’limni so’nggi ustuni o’z-o’zini anglash, o’z-o’ziga hukmronlik, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik; bularning barchasi orqali inson turli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladi, hamda o’z shaxsiyatini har tomonlama mustaqil tarzda rivojlantiradi.

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalarni umumlashtirgan holda shuni xulosa qilish mumkinki, pedagogning refleksiv ko’nikmasi nafaqat o’zining shaxsiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega, balki u ishlaydigan ta’lim muassasasi hamda jamiyat uchun ham foydasi beqiyos. Refleksiv kompetensiya o’tmish bilan keljak o’rtasida ko’prik vazifasini o’tay oladi desak mubolag’a bo’lmaydi, chunki refleksiv kompetent o’qituvchi oldin qilgan xatolarini ko’zdan kechirgan holda hozirgi hamda keljakdagi shunday kamchiliklarni bartaraf eta oladi.

Shubhasiz, faqatgina doimiy ravishda refleksiyadan foydalanish, o’z-o’zini tahlil qilish hamda tajribalardan xulosa chiqarish ularni professionallik sari yetaklaydi. Shuningdek, mening fikrimcha, individning reflektiv tajribasida, va asosan, o’qituvchining reflektiv tajribasida ushbu kompetensiya guruhlaridan eng muhim bu muvofiqlik, ya’ni o’zi bo’lishni o’рганишликdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vassilev, V. (2018). Reflection - types and mechanisms of its implementation. In: Book on reflection. Plovdiv, University Publishing House

Paisii Hilendarski. Vassilev, V. (2018), 26 - 30 b.

2. Metaeva, V. A. (2006). Reflection as metacompetence, Pedagogy, 3, 57-61 b.
3. <http://moyuniver.net/refleksivnaya-kompetenciyaiprofessionalnaya-kompetentnostuchitelya/>
4. http://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Pedagog/slast/03.php